



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

OILA A'ZOLARNING MANFAATLARINI TA'MINLASH VOSITASI SIFATIDA TA'MINOT BERISH BO'YICHA KELISHUV

Usmonova Mahliyo Sobirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti, Huquq ta'limi kafedrası

katta o'qituvchisi yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

usmonovamahliyo540@gmail.com

+99 890 5309328

Annotatsiya

Maqolada oila a'zolarining manfaatlarini ta'minlash vositasi sifatida ta'minot (aliment) to'lash to'g'risidagi kelishuvning huquqiy mohiyati, mazmuni hamda amaliy ahamiyati yoritilgan. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 130–134-moddalari asosida aliment to'lashning kelishuv, ixtiyoriy va sud tartibida amalga oshirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvning notarial rasmiylashtirilishi, uning ijro hujjati sifatidagi yuridik kuchi va bitimning fuqarolik-huquqiy shartnomalardan farqli jihatlari ilmiy-nazariy asosda ko'rib chiqilgan. Muallif aliment kelishuvining huquqiy tabiatini, taraflarning huquq va majburiyatlarini, bitimni o'zgartirish va bekor qilish tartibini aniqlashtirish zarurligini asoslaydi hamda Rossiya Federatsiyasi Oila kodeksi bilan qiyosiy tahlil asosida takomillashtirish takliflarini bildiradi.

Kalit so'zlar: Aliment, ta'minot, oilaviy kelishuv, Oila kodeksi, mediatsiya, shartnoma, notarial tasdiqlash, ijro varaqasi, fuqarolik-huquqiy bitim, muomalaga layoqat, taraflarning huquq va majburiyatlari, sudgacha hal etish, oila a'zolarining manfaatlarini, dispazitivlik prinsipi, huquqiy kafolatlar.

Oilaviy nizolar ichida eng ko'p uchraydigan bu ta'minot undirish bilan bog'liq munosabatlar bo'lib, ushbu munosabatlarni muqobil yechimlar orqali hal etish qulay hisoblanadi. Ya'ni, nizolarni sudgacha hal etish va kelishuv bitimlarini



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

tuzishga erishish taraflar o'rtasidagi nizolarning manfaatli echim topishiga xizmat qiladi.

Huquqshunos X.Saydivaliyeva nizolarni hal etishning muqobil usullarining afzalliklari quyidagilar bilan belgilanishini qayd etadi [1]:

1. Oilaviy masalalarni o'zaro uchinchi shaxslarsiz hal etish imkoniyati: Oilaviy kelishuvlar ishtirokchilarga o'z holatlari va ehtiyojlariga mos keladigan shartlar va yechimlarni aniqlash imkonini beradi. Bu tomonlarga sud qarorlari bilan solishtirganda natija ustidan ko'proq nazorat qilish imkonini beradi.
2. Moslashuvchanlik: Oilaviy kelishuvlar sud qarorlariga qaraganda ancha moslashuvchan bo'lishi mumkin. Ular oilaning o'ziga xos sharoitlari va ehtiyojlarini qondirishi mumkin, shu bilan birga o'zgaruvchan sharoitlarga mos ravishda keyinchalik o'zgartirish uchun imkoniyatini berishi mumkin.
3. Shaxsiy munosabatni yaxshilashi mumkin: kelishuvga erishish jarayoni oilalarga nizolar va kelishmovchiliklarni hal qilish, muloqotni yaxshilash va oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni saqlashga yordam beradi. Bu ajralish yoki boshqa jiddiy oilaviy inqiroz holatlarida ayniqsa muhimdir.
4. Vaqt va resurslarni tejash: Shartnoma tuzish vaqtini, pulni va hissiy resurslarni tejashga yordam beradi, aks holda uzoq davom etadigan sud ishlariga sarflanishi mumkin. Shuningdek, u sud jarayonlari bilan bog'liq qo'rquv va noaniqlikdan qochishga yordam beradi.

G.Y.Galinov va E.A.Ivanovalar [2] aliment to'lash bo'yicha yozma kelishuvning asosiy afzalliklari sifatida quyidagilarni qayd etadi:

1. Uzoq va noqulay sud jarayonidan qochish
2. Bolalardan ota-onalar uchun aliment miqdorini mustaqil aniqlash imkoniyatini beradi
3. Hujjatlarni rasmiylashtirish va notarial tasdiqlash uchun katta xarajatlarni talab qilmaydi



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

4. Bitim ijro varaqasining yuridik kuchiga ega va shartnoma shartlari bajarilmagan taqdirda majburiy undirish uchun murojaat etish huquqini beradi. Amaldagi O‘zbekiston qonunchiligida nizolarni hal qilishning bir qator tartiblari joriy etilgan. Bu esa so‘nggi yillarda huquqni qo‘llash amaliyotida taraflar huquqiy nizoni hal qilishning eng muqobil usullaridan foydalanishni afzal ko‘rayotganligi bilan bog‘liqdir. Bizningcha, huquqiy nizolarni sudgacha hal qilishning eng maqbul usullaridan biri – bu mediatsiya va kelishuv instituti bo‘lib, u oilaviy munosabatlarni ham chetlab o‘tmaydi.

Oila qonunchiligi alimentlarni undirishning uchta tartibini nazarda tutadi. Ya’ni aliment to‘lash to‘g‘risida kelishuv tuzish (17-bob, 130 – 134-moddalar), alimentni ixtiyoriy to‘lash (18-bob, 135-modda), alimentlarni sud tartibida undirish (18-bob, 136-modda) [3].

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodesining 130-134-moddalarida oilaviy munosabatlarni tartibga solishni usullaridan biri sifatida kelishuv bitimi tuzish mumkinligi belgilangan. Aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv yozma shaklda tuzilib, notarial tartibda tasdiqlanishi lozim. Aliment to‘lash to‘g‘risida kelishuv tuzishning qonunda belgilangan shakliga rioya qilmaslik, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan oqibatlarga olib keladi.

Notarial tartibda tasdiqlangan aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv ijro varaqasi kuchiga ega bo‘ladi.

Ijro hujjati, birinchidan, qonunda belgilangan qat’iy belgilangan shaklga ega bo‘ladi, ikkinchidan, u barcha organlar yoki mansabdor shaxslar tomonidan emas, balki faqat qonunda ko‘rsatilgan shaxslar tomonidan chiqariladi, uchinchidan, u sud ijrochisi tomonidan ijro ishi qo‘zg‘atilishi, ijro choralari qo‘llash va ijro harakatlarini amalga oshirish uchun mustaqil asos bo‘ladi [4].

Aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuvga nisbatan alohida rasmiylashtirish talabi, ya’ni notarial tartibda tasdiqlash majburiyligi ko‘rsatilgan. Shu boisdan,



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 112 moddasining birinchi qismi va 115-moddasida bitim shakliga rioya qilmaslikka doir huquqiy oqibatlar nazarda tutilgan. Bitimning notarial shakliga yoki uni davlat ro'yxatidan o'tkazish talabiga rioya qilmaslik bitimning haqiqiy emasligini keltirib chiqaradi [5].

Professor O.Oqyulovning fikricha, "aliment to'g'risidagi kelishuv bilan alimentni ixtiyoriy to'lash o'rtasida farqlar bor. Alimentni ixtiyoriy to'lash – bu bir tomonlama bitim hisoblanadi, chunki unda faqat bir tarafning erk, irodasiga asoslanadi" [6].

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 130-moddasida aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv (aliment miqdori, shartlari va to'lash tartibi) aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs bilan aliment oluvchi o'rtasida tuzilishi, agar aliment oluvchi muomalaga layoqatsiz bo'lsa, kelishuv uning qonuniy vakili bilan tuzilishi qayd etilgan.

Aliment to'lash haqida kelishuv tuzish haqida so'z ketar ekan, professor O.Oqyulov Oila kodeksining 130-moddasini takomillashtirish uchun asoslar mavjudligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, Rossiya Federatsiyasi Oila kodeksining 99-moddasiga ko'ra, aliment to'lovchi ham muomalaga layoqatsiz bo'lishi mumkin va bu holda uning nomidan qonuniy vakili aliment to'g'risida kelishuv tuzishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 130-moddasiga ko'ra esa, faqat aliment oluvchi muomalaga layoqatsiz bo'lganda, uning qonuniy vakili aliment to'g'risida kelishuv tuzadi. RF Oila kodeksining 99-moddasi real voqelikka to'laroq mos keladi. Chunki voyaga yetgan ota onalardan biri kelgusida muomalaga layoqatsiz deb topilishi mumkin. Agar uning mol mulki, daromad manbalari (pensiya, nafaqa va boshqalar) bo'lsa, nega unga voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz farzandlarga nisbatan aliment to'lash majburiyatini belgilamaslik kerak, axir buning uchun asos mavjud emas [7].



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Bizningcha aliment to'lash to'g'risida kelishuv bitimining fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi shartnomalardan quyidagi o'ziga xos xususiyatlari farqlab beradi:

- shartnoma tuzish erkinligi mavjud emas, ya'ni fuqarolik-huquqiy munosabatlardan farqli o'laroq, aliment to'lash haqidagi kelishuvda taraflar tomonidan huquq va majburiyatlar belgilanmaydi, aksincha qonun bilan aniq belgilab berilgan huquq va majburiyatlar yozma bitim tuzish orqali rasmiylashtiriladi;
- aliment to'lash bo'yicha sub'yektlar tarkibi qonun bilan aniq belgilab berilgan bo'lib, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda tuziladigan shartnomalar kabi har qanday shaxs munosabat ishtirokchisi bo'la olmaydi;
- aliment to'lash bo'yicha bitim bekor qilingan taqdirda ham, bitimda nazarda tutilgan majburiyatlar aliment to'lovchida saqlanib qoladi.

Aliment to'lash to'g'risidagi bitimning huquqiy mohiyatini muhokama qilishni davom ettirib, muallif ushbu shartnoma mazmunining ayrim xususiyatlarini qayd etadi.

Muallifning fikricha, tegishli oila a'zolariga aliment to'lash to'g'risida bitim tuzish va uning mazmunini belgilash erkinligini berish orqali qonun chiqaruvchi ushbu kelishuvning bajarilishini ta'minlaydigan bir qator davlat-huquqiy kafolatlarni nazarda tutadi.

Qolaversa, aliment to'g'risidagi kelishuvni o'zgartirish masalasi Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan bitimlarni o'zgartirishdan keskin farq qilib, uni o'zgartirish va bekor qilish erkin hamda dispazitiv xarakterga ega. Chunki aliment to'lash to'g'risidagi bitimda ko'rsatilgan to'lovlarni amalga oshirish taraflardan birining moddiy imkoniyatiga bo'g'liq bo'lib, kelgusida ushbu moddiy imkoniyat yoqolgan yoki kamaygan taqdirda, sud tomonidan bitim



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

o'zgartirilishi imkoniyat yaratiladi hamda bitimda nazarda tutilgan shartlar o'zgartirilishiga yo'l qo'yiladi.

Fodalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Saydivaliyeva X.X. Oilaviy munosabatlarni shrtnomaviy huquqiy tartibga solishni takomillashtirish. y.f.d.ilmii darajasini olish uchun tayyorlangan diss. T. 2025. b 118
2. Galinov G.Y., Ivaniva E.A. Алименты совершеннолетних детей на родителей. /Elektron manba/ file:///C:/Users/Hp/Downloads/alimenty-sovershennoletnih-detey-na-roditeley.pdf
3. Yodgorov X. va boshqalar. Voyaga yetmagan bolalarning ta'minot olish huquqi. – T.: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, 2016. – B. 3.
4. Pavin D.V. Понятие и содержание исполнительного документа: проблемы теории и практики // Исполнительное право. 2012. № 4. b. 28–35
5. Saydivaliyeva X.X. Oilaviy munosabatlarni shrtnomaviy huquqiy tartibga solishni takomillashtirish. y.f.d.ilmii darajasini olish uchun tayyorlangan diss. T. 2025. 142 b.
6. Oqyulov O. va boshqalar. Ayollar va bolalar mulkiy manfaatlarini aliment munosabatlari orqali ta'minlash masalalari. – T.: Yangi asr avlodi, 2019. – B. 9.
7. Oqyulov O. va boshqalar. Ayollar va bolalar mulkiy manfaatlarini aliment munosabatlari orqali ta'minlash masalalari. – T.: Yangi asr avlodi, 2019. – B. 14.